

OG‘ZAKI TARJIMADA ESLATMA OLISH USULIDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Yo‘ldoshev Ulug‘bek

yoldoshevu@mail.ru

Shonazarova Dilnoza

d.shonazarova@nordicuniversity.org

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola og‘zaki tarjima jarayonida keng foydalaniladigan usullardan biri bo‘lgan eslatma olish usullari haqida ma’lumotlar, ulardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar hamda misollarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Sinxron tarjima, ketma-ket tarjima, shivirlab tarjima qilish, visual tarjima, eslatma olish, qisqartirishdan foydalanish.

ANNOTATION

This article defines information about note-taking which is one of the most widely used technique in oral translation. It provides information, guidance and examples of putting this technique into practice.

Key words: simultaneous interpretation, consecutive interpretation, whispering, visual translation, note-taking.

АННОТАЦИЯ

В статье автор рассматривает информация, рекомендации и примеры методов ведения заметок, одного из наиболее широко используемых методов устного перевода.

Ключевые слова: синхронный перевод, последовательный перевод, шепот, визуальный перевод, заметка.

KIRISH

Og‘zaki tarjima tarjimaning o‘ziga xos turi hisoblanib, uning asosan quyidagi turlari mavjud bo‘lib, bular sinxron tarjima (simultaneous interpretation), ketma-ket tarjima (consecutive interpretation) va shivirlab tarjima qilish (whispering), matnga qarab tarjima qilish (visual translation) hisoblanadi. “Og‘zaki tarjima murakkab jarayon bo‘lib, u eshitib tushunish, eslab qolish, ma’lumotni tarjima qilish hamda uni tinglovchiga yetkazib berish jarayonlarini o‘z ichiga oladi”. Shuning uchun ham har bir og‘zaki tarjimonda kuchli xotira, har bir soha bo‘yicha chuqur bilim, tez reaksiya bildirish olish, doim mavzuga oid bilimlarni yangilab borish, o‘zini har tomonlama boshqara olish, yaratuvchanlik, fikrlarini erkin bayon qilib bera olish, sinonim, antonimlardan erkin foydalanish hamda to‘g‘ri so‘z tanlay olish, diqqatini jamlay olish va yaxshi eshitish qobiliyati bo‘lishi talab qilinadi. Yozma tarjimadan farqli o‘laroq, og‘zaki tarjima turida tarjimon matnni faqatgina bir marta eshitish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tarjima jarayonida matnni qaytadan eshitish yoki to‘liq yozib olishga deyarli imkon bo‘lmaydi. Mana shunday vaziyatlarda tarjimonlar yozib olish (note-

taking) usulidan foydalanishadi. Ushbu usul ketma-ket tarjimada keng qo'llaniladi, sinxron tarjima jarayonida esa ma'lum bir vaziyatlarda raqamlar, sanalar, ismlar va ba'zi hollarda esa terminlarni ham yozib olishda ishlatiladi.

Eslatma olish bu shunchaki aytilgan matnni qog'ozga tushirish emas, balki yozib olish mobaynida matnning asl mohiyatini xotirada saqlab qolgan holda kerakli detallarini, ma'lumotlarni yozib olishdir. Chunki asl matn mohiyati eslab qolinmagan taqdirda yozib olingan matnni tarjimon qaytib o'qiy olmasligi mumkin. "Sinxron tarjimadan farqli o'laroq, eslatma olish ketma-ket tarjimada ko'proq foydalaniladi hamda aytilgan axborotni qayta eslashda muhim rol o'ynaydi. Har bir og'zaki tarjima bilan shug'ullanuvchi tarjimon ushbu sohada muvaffaqiyatga erishishi uchun yozib olish ko'nikmalarini puxta egallagan bo'lishi lozim." Odatda ketma-ket tarjima jarayoni ikki bosqichda bo'ladi. Birinchi bosqich davomida tarjimon matnni eshitish davomida uni yozib ham oladi, ikkinchi bosqichda esa yozilgan matnni eslab uni tarjima qiladi". Har bir tarjimonning yozib olgan matni o'ziga xos bo'ladi, ya'ni uni boshqa bir tarjimon o'qiy olmaydi. Chunki har bir tarjimonning foydalanadigan belgilari har xil bo'ladi. Tarjimonlar belgilarni o'zlari yaratib olishlari yoki barcha foydalanadigan standart belgilardan foydalanishlari mumkin. Yozib olish mobaynida tarjimon asosiy g'oyalarni, raqamlar, sanalar, toponimlar, terminlar, bog'lovchilar, kalit so'zlar va shu kabi eng kerakli ma'lumotlarni yozib olishlari kerak bo'ladi. "Eslatma yozuvlari nutqning to'liq davomiyligini ta'minlovchi va aytilgan gapning aniq nusxasini berish imkonini beruvchi, so'zlovchi nutqining asosiy mazmunini tarjimon o'z vaqtida bera olish imkoniga ega grafik belgilardir". Eng muhimi, ular o'zlari yozgan belgilarini tushuna olishlari va yoddan chiqarmasliklaridir.

Note-taking qilish jarayonida tarjimon quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

- Ma'lumotlarni iloji boricha qisqa holatda yozib olish, ya'ni tejamkorlik qilishga harakat qilish lozim;
- Gapni qismlarga ajrata olish, aniqrog'i gapdagi ega, kesim, to'ldiruvchi va aniqlovchi kabi gap qismlarini anglay olish kerak;
- Gapning qaysi qismi muhimligi yoki muhim emasligini ajrata olish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim;
- Gapdagi bog'lovchilar va kirish so'zlarni ajrata olishi lozim;
- So'zlarni emas, balki asosiy fikrni yozib olishi zarur;
- Belgilar aniq va tushunarli qilib yozilgan bo'lishi kerak;
- Tarjimon tanlagan belgilar chizishga yoki yozishga oson bo'lishi lozim. Ruchkani uch martadan ortiq uzish bilan chizilgan belgilar yozishga qiyin hisoblanadi;
- Har bir yozilgan belgilar oldindan o'ylab qo'yilgan bo'lishi kerak. Aniqrog'i, tarjima davomida o'ylab topilgan belgilar tarjimonning yodidan ko'tarilib qolishi yoki chalkashib ketishi mumkin.

Yozib olish jarayonida tarjimonlar har bir so'zni alohida-alohida yozib o'tirish uchun vaqt yetmaydi. Shuning uchun ham ushbu jarayonda so'zlarni qisqartirishdan foydalanadi. Eslatma olish jarayonida so'zlarni qisqartirishning bir nechta usullari bor. Tarjimonlarning aksariyat qismi o'zi uchun alohida belgilarni va qisqartmalarni o'ylab topishsa, ba'zi tarjimonlar esa barcha uchun ma'lum bo'lgan belgilardan foydalanishadi. Ko'p hollarda bir tarjimonning yozib olgan eslatmalarini ikkinchisi o'qiy olmaydi. Ingliz tilida so'zlarni qisqartirishning bir nechta usullari mavjud, ammo tarjimon ulardan foydalanishi ham yoki foydalanmay o'zi uchun boshqa belgilar

to'plamini ishlab chiqishi ham mumkin. Qisqartmalar va belgilarning asosan ingliz tilidagi variantlari mavjud. Quyida esa ularning o'zbek tilida qisqartirib yozilish yo'llari ko'rib chiqiladi:

1. Uzun so'zlarning birinchi bo'g'inini yozish orqali qisqartirish:

Investitsiya-invest	konstitutsiya-kons
Ma'rifat-ma'ri	vazirlik-vaz
Kompyuter-komp	ijtimoiy-ijt
Universitet-uni	prezident-prez

2. So'zlardagi unli harflarni tashlab ketish orqali qisqartirish:

Mashhur-mshhr	kafedra-kfdr
Maktab-mktb	avtobus-vtbs
Printer-prntr	moliyaviy-mlyv

3. Tarjimon o'ziga tanish va qisqa bo'lgan so'zlarni birinchi va oxirgi harflarini yozish orqali ham qisqartirishi mumkin:

Yer-yr	bozor-br
Ilm-im	qog'oz-qg'z
Stol-sl	mashq-mq

4. Tarjimon o'ziga qulay deb bilsa u so'zning unlilarini tushirib qoldirish bilan birga uning oxirini qisqartirib ketish usulidan ham foydalansa bo'ladi:

Telefon-tl-n	globus-gl-s
Masxaraboz-msx-z	kalendar-kln-r
Akademik-akd-k	axborot-axb-t

5. Tashkilot, muassasa, birlashma yoki shunga o'xshash so'zlarni qisqartirib yozish:

BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)	IIB (Ichki ishlar bo'limi)
ShHT (Shanxay hamkorlik tashkiloti)	MDH (Mustaqil davlatlar hamdo'stligi)

6. Maxsus belgilardan foydalanish. Bir belgi gapda kelishiga qarab bir nechta so'z o'rnida foydalanilishi mumkin. Quyidagi belgilar eslatma olishdan keng foydalaniladi:

“&”-va;
“+”-shuningdek, yana, bundan tashqari, qo'shmoq, qo'shimcha;
“-”- ...siz, kamaytirmoq, ayirmoq, pasaytirmoq;
“=”-...ga teng, tenglashmoq, bir xil, natija bermoq, ... bilan tugamoq;
“≠”-...ga teng emas, bir xil emas, natijaga erisha olmadi, natija bermadi, ...bilan yakunlanmadi;
“>”-...dan katta, ...dan ko'proq, ...dan ustun (bo'lmoq);
“<”-...dan kichik, ...dan kamroq, ...dan past (bo'lmoq);
“↑”-o'smoq, ko'tarilmoq, rivojlanmoq, oshmoq, ko'paymoq;
“↑↑”-keskin o'smoq, juda rivojlanmoq, katta miqdorda oshmoq;
“↓”-kamaymoq, tushmoq, qoloqlashmoq, rivojlanishdan to'xtamoq, pasaymoq;
“↓↓”- keskin kamaymoq, o'ta tushmoq, juda qoloqlashmoq, katta miqdorda pasaymoq;

“∴”- Shuning uchun ham, natijada, xullas, xulosa o‘rnida;
“→”-ga olib bormoq, ...natijaga olib bormoq, ...ni keltirib chiqarmoq;
“↗”-...ga olib bormaydi, ...bilan yakunlanmaydi, ...natija bermaydi, ...ni keltirib chiqarmaydi;
“←”-...natija bilan tugamoq, ...bilan yakunlanmoq/tugamoq, ...ga sabab bo‘lmoq;
“↖”-...natija bilan tugamadi, ...bilan yakunlanmaydi/tugamaydi, ...ga sabab bo‘lmaydi;
“×”- yo‘q, xato, noto‘g‘ri, yanglish, mumkin emas;
“××”- umuman iloji yo‘q, juda ham noto‘g‘ri, o‘ta yanglish, umuman mumkin emas;
“?”- aniq emas, noaniqligicha qolmoq, savol bermoq, tasdiqlanmaslik, tahlil qilinmoq, javobsiz qolmoq, qiziqitirmoq;
“√”- bajarmoq, qilmoq, amalga oshirmoq, yaratmoq, qabul qilmoq, qaror qabul qilmoq;
“√√”- o‘ta aniq, to‘liq isbotlangan, to‘liq bajarilgan, shubhasiz amalga oshirilgan, butunlay qabul qilingan;
“#”-raqam, son;
“*”- maxsus, muhim, alohida, sezilarli, bilinar darajada, muhim;
“/”-masalan, misol uchun, jumladan, shuningdek;
“\$”-pul, mablag‘, daromad, budjet;
“ ”-to‘xtash, pauza;
“♪”-musiqa, ohang, navo, kuylamoq, musiqa eshitmoq, tinglamoq;
“↔”-ikki tomonlama, o‘zaro, kelishilgan, bir-biriga bog‘liq, aloqador;
“⚡”-energiya, tok, chiroq, elektr;
“↔”-tarjimon, o‘zaro qarama-qarshi, nomuvofiq, bir-biriga mos kelmagan, mos emas;
“□”-davlat, o‘lka, yurt, diyor, qirollik;
“○”-uchrashuv, simpozium, konferensiya, muzokara, munozara, seminar, brifing, hodisa, muhokama;
“☉”-yarmi, teng qismi;
“∞”-cheksiz, chegarasiz, to‘siqsiz;
“∴”- dedi, aytdi, ta’kidladi, talab qildi;
“~”-uzoq muddatli, ko‘p vaqtli, uzoq cho‘zilgan;
“≈”-taqriban, taxminan, deyarli, taxminan ...ga teng, deyarli ...ga teng;
“⊗”-ta’qiqlangan, bekor qilingan, ruxsat berilmagan, mumkin emas;
“!”- muhim, e’tibor qilmoq, e’tiroz bildirmoq, eslatma, zarur, kerak, lozim, ammo, biroq, lekin;

XULOSA

Og‘zaki tarjima murakkab va talabchan jarayon bo‘lib, tarjimonning xotira, tez reaksiya, chuqur bilim va yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishini talab qiladi. Sinxron, ketma-ket va shivirlab tarjima qilishning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, har birida umumiy prinsiplar, masalan, eslatma olish, tarjimonning asosan ma'lumotni tushunishi va xotiraga saqlashni o‘z ichiga oladi. Yozib olish usuli esa ketma-ket tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki u aytilgan ma'lumotni to‘liq eslab qolish imkoniyatini beradi. Tarjimonlar bu jarayonda qisqartirishlar va maxsus belgilarni ishlatib, o‘zlariga qulay bo‘lgan tizimni ishlab chiqishlari mumkin. Belgilar va qisqartirishlar aniq, tushunarli bo‘lishi kerak, chunki ular tarjimonning o‘z xotirasini yanada samarali ishlatishiga yordam beradi. Ushbu jarayonni o‘zlashtirish, yuqori sifatli og‘zaki tarjima qilish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikma hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘afurov I, Mo‘minov O, Qambarov N. Tarjima nazariyasi, –Tashkent: 2012. –173 b.
2. Muminov O.M. A Guide To Simultaneous Translation. Toshkent, 2005. –136 p.
3. Mustanova Sh. Og‘zaki tarjima (ilk qadamlar). –T:2020 -138 p.
4. Shonazarova, D. (2025). Nyurenberg sudida tarjimonlar faoliyati. *Nordic_Press*, 7(0007).
5. Shonazarova, D. (2025). Nyurenberg sudi va uning tarkib topishi. *Nordic_Press*, 7(0007).
6. Shonazarova, D. (2024). O ‘zbekistonda ziyorat turizmini shakllantirishning muhim omillari. *Nordic_Press*, 3(0003).
7. Shonazarova, D. (2024). Simultaneous interpretation and required competencies for choosing the profession. *Nordic_Press*, 3(0003).
8. Shonazarova, D. (2025). INGLIZ-O ‘ZBEK TILLARI SINXRON TARJIMASIDA SIYOSIY-DIPLOMATIK NUTQNING QIYOSIY TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 390-393.
9. Shonazarova, D. (2024). SINXRON TARJIMON KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI. *Nordic_Press*, 3(0003).
10. Shonazarova, D. (2024). SINXRON TARJIMA VA UNING KELIB CHIQISHI BO ‘YICHA NAZARIYALAR. *Nordic_Press*, 3(0003).
11. Shonazarova, D. SINXRON TARJIMA AMALIYOTI VA NAZARIYASI. *UZBEKISTAN*, 43.
12. Shonazarova, D. (2024). Yuridik matnlar tarjimasi jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularning yechimi. *Nordic_Press*, 3(0003).
13. Shonazarova, D. (2024). Simultaneous interpretation and required competencies for choosing the profession. *Nordic_Press*, 3(0003).
14. Shonazarova, D. (2024). ChatGPT and its challenges working with idioms and writing systems in Uzbek language. *Nordic_Press*, 3(0003).
15. Shonazarova, D. (2025). General information about anticipation in simultaneous interpretation. *Nordic_Press*, 7(0007).
16. Shonazarova, D. (2025). Linguistic features of the political speech. *Nordic_Press*, 7(0007).
17. Yo‘ldoshev.U.R. Tarjima nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 b.
18. <http://globalts.uz/index.php/en/services/oral-translation>
19. https://ralr.uk.ac.ir/article_2023_ed3b91c5e1a3c4baee2ae5df86a63b91.pf